

**SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA SHAXS
TARBIYASI MASALALARI****Azamova Jasmina Umidjon qizi***Guliston davlat pedagogika instituti**Tillarni o'rgatish fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi***Ilmiy rahbar: Nasrullayev Elmurod Jumaboyevich**[Tel: +998942020570](tel:+998942020570)azamovajasmina69@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Mazkur ishda Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalarining falsafiy-pedagogik mohiyati yoritiladi. Tadqiqotda Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi Sharq allomalari hamda qadimgi yunon va Yevropa ma'rifatchilari ijodida shaxs kamoloti, axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik tarbiya tamoyillari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mutafakkirlar merosidagi insonparvarlik, komil inson va ma'naviy barkamollik g'oyalari globallashuv sharoitida "Yangi O'zbekiston" uchun ma'rifa tli, fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni voyaga yetkazishda nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ishda tarixiy manbalar tahlili, qiyosiy-pedagogik yondashuv va mazmuniy tahlil usullari asosida sharqona va g'arbona tarbiya g'oyalari umumiy hamda o'ziga xos jihatlari aniqlanib, ularni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *Sharq mutafakkirlari, G'arb mutafakkirlari, shaxs tarbiyasi, komil inson, ma'naviy barkamollik, axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, pedagogik meros, qiyosiy tahlil, tarixiy-pedagogik tadqiqot.*

АННАТАЦИЯ

В настоящей работе раскрывается философско-педагогическая сущность воспитания личности в наследии мыслителей Востока и Запада. В исследовании проводится сравнительный анализ принципов нравственного, умственного, физического и эстетического воспитания в трудах восточных ученых, таких как Юсуф Хос Ходжиб, Абу Наср Фараби, Абу Али ибн Сина, Алишер Навои, а также древнегреческих и европейских просветителей. Актуальность исследования заключается в том, что идеи гуманизма, совершенного человека и духовного совершенства, отраженные в наследии мыслителей, служат теоретико-методологической основой воспитания образованных, граждански активных молодых людей в условиях глобализации и строительства «Нового Узбекистана». В работе на основе анализа исторических источников, сравнительно-педагогического подхода и содержательного анализа выявлены общие и специфические черты восточных и западных идей воспитания,



разработаны научные выводы по их применению в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: мыслители Востока, мыслители Запада, воспитание личности, совершенный человек, духовное совершенство, нравственное воспитание, умственное воспитание, физическое воспитание, эстетическое воспитание, педагогическое наследие, сравнительный анализ, историко-педагогическое исследование.

ABSTRACT

This study explores the philosophical and pedagogical essence of personality education in the heritage of Eastern and Western thinkers. The research provides a comparative analysis of the principles of moral, intellectual, physical, and aesthetic education as reflected in the works of Eastern scholars such as Yusuf Khass Hajib, Abu Nasr al-Farabi, Abu Ali Ibn Sina, and Alisher Navoi, alongside ancient Greek and European Enlightenment thinkers. The relevance of the study lies in the fact that the ideas of humanism, the perfect individual, and spiritual maturity found in the thinkers' legacy serve as a theoretical and methodological foundation for educating knowledgeable and civically engaged youth in the context of globalization and the development of the "New Uzbekistan." Based on historical source analysis, comparative-pedagogical and content analysis methods, the study identifies common and distinctive features of Eastern and Western educational concepts and formulates scientific conclusions on their application to the modern educational process.

Keywords: Eastern thinkers, Western thinkers, personality education, perfect individual, spiritual maturity, moral education, intellectual education, physical education, aesthetic education, pedagogical heritage, comparative analysis, historical-pedagogical research.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot xurujlari kuchayayotgan sharoitda yosh avlodni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy yetuk shaxs qilib tarbiyalash masalasi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning ertangi kuni, davlatning raqobatbardoshligi va milliy taraqqiyot darajasi, avvalo, komil insonni shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya tizimining qay darajada samarali yo'lga qo'yilganiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasiga doir ilgari surilgan g'oyalarni chuqur o'rganish, ularni bugungi islohotlar ruhiga mos holda qayta talqin etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sanaladi. Sharq uyg'onish davri allomalari – Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy o'z asarlarida shaxsni tarbiyalash masalasini markaziy o'ringa qo'yib, ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas jarayon sifatida talqin qilganlar. Ular aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasining uzviy birligini ta'kidlab, yosh xususiyatlarini, bola



fiziologik va psixologik holatini inobatga olgan holda tarbiya berish zarurligini uqtiradilar.

G'arb mutafakkirlari – qadimgi yunon faylasuflari va keyingi Yevropa ma'rifatchilari esa tarbiyani insonni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi bosh omil deb bilib, aqlni rivojlantirish, erkin fikrlash, axloqiy tanlov uchun mas'uliyat, mehnatsevarlik va fuqarolik ongini tarbiyalash g'oyalari ilgari surganlar. Sharq va G'arb an'analarini qiyosiy ko'rish shuni ko'rsatadiki, har ikkala maktabda ham shaxsni tarbiyalashda insonparvarlik, ezgulik, odo-axloq, bilim va kasb-hunarni egallash, jamiyat oldidagi mas'uliyatga urg'u beriladi, faqat yondashuv uslubi va falsafiy asoslarida ayrim farqlar mavjud. Mening fikrimcha, bugungi "Yangi O'zbekiston" sharoitida aynan shu umumiy g'oyalarni uyg'unlashtirish – ya'ni sharqona ma'naviyat va g'arbona tizimlilikni birlashtirgan holda yoshlarni tarbiyalash – zamonaviy, ma'rifatli va raqobatbardosh shaxs modelini yaratishning eng maqbul yo'lidir.

Sharq mutafakkirlari qarashlari. Sharq uyg'unish davri allomalari – Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy – ta'lim va tarbiyani bir-biridan ajralmas, shaxsni kamolga eltuvchi yagona jarayon sifatida ko'rsatadilar. Manbalarda Forobiy insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi asosiy belgi sifatida aql, nutq, ma'naviy-axloqiy kuch va ilmga intilishni alohida ta'kidlagani qayd etiladi; u to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazishini uqtiradi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasi shaxs kamolotining asosiy tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. Asarda hukmdor "quyoshdek" barchaga barqaror nur sochishi, zulmdan qochishi kerakligi, adolat davlatning asosi sifatida ulug'lanadi. Inson qadrini aql-idrok, nutq, ilm va hunar belgilaydi. "O'quv" (tug'ma qobiliyat) va "bilim" (mehnat mahsuli) birligi ta'kidlanadi. Halollik, saxovat, mardlik, shirin so'z, kattaga hurmat, kichikka mehribonlik, vatanparvarlik fazilatlar sifatida ko'rsatiladi. Oila bolalarni axloqiy, ma'naviy jihatdan kamolga yetkazish markazi, ota-ona mas'uliyati alohida ta'kidlanadi. Bek va elchilar – sadoqat va tadbirkorlik, kotiblar – adolat va ishonchlilik, hunarmandlar – halollik va mehnatsevarlik, oddiy fuqarolar – qanoat va jamoaviylik tamoyillari belgilangan. Yusuf Xos Hojib axloqni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi ilm" deb ta'riflab, uni shaxs va jamiyat barkamolligining asosi qilib ko'rsatadi. Asar bugungi kunda ham "Yangi O'zbekiston"da ma'rifatli shaxs tarbiyasi uchun muhim metodik manba sifatida xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari shaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, halol mehnat, oilaga sadoqat, kattaga hurmat va kichikka izzat, jamoaviylik va hamjihatlik kabi fazilatlarini asosiy maqsad sifatida oladilar. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, ular tarbiya jarayonida turli yosh davrlarining o'ziga xos jihatlari, bolalarning fiziologik va psixologik holatini hisobga olish, tarbiyani avvalo



oiladan boshlash zarurligini uqtiradilar; bu fikrlar shaxs rivojida oila, mahalla va maktab hamkorligi muhimligini men aytayotgan yondashuv bilan to'la mos keladi.

G'arb mutafakkirlari, ayniqsa qadimgi yunon faylasuflari va keyingi Yevropa ma'rifatchilari ta'limni insonni jamiyat hayotiga tayyorlash, aqlni rivojlantirish va erkin fikrlovchi shaxsni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida talqin qiladilar. Ularning qarashlari tahlil qilingan ilmiy ishlar G'arb an'anasida axloqiy tanlov uchun mas'uliyat, shaxsiy erkinlik, fuqarolik ongini tarkib toptirish va mehnatsevarlikka munosabat alohida o'ringa ega ekanini ko'rsatadi. Qiyosiy tadqiqotlarda G'arb mutafakkirlari inson ruhiy tabiati, uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini tahlil etar ekan, shaxsni tarbiyalashda mantiqiy fikrlash, tanqidiy yondashuv, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga urg'u berishi qayd etiladi. Bu yondashuv menimcha bugungi kunda yoshlarni nafaqat "yaxshi bola" emas, balki o'z fikrini asoslay oladigan, jamiyatda faol ishtirok etadigan shaxs sifatida tarbiyalash zarurligini ko'rsatib beradi. Manbalarda Sharq va G'arb mutafakkirlari qarashlarini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, har ikkala an'anada shaxs tarbiyasida umumiy g'oyalar – insonparvarlik, ezgulik, adolat, bilim va kasb-hunarga ega bo'lish, jamiyat oldidagi mas'uliyat – markaziy o'rinni egallaydi. Farqli jihatlar asosan yondashuv uslubi va falsafiy asoslarda namoyon bo'ladi: Sharq maktabi ko'proq ma'naviyat, axloq va jamoaviylikka tayanar ekan, G'arb maktabi shaxs erkinligi, tanqidiy tafakkur va huquqiy ongni kuchliroq ilgari suradi.

Mening fikrimcha, bugungi O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida aynan shu ikki yo'nalishning eng yaxshi tomonlarini uyg'unlashtirish zarur: Sharq allomalari ta'kidlagan ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik, vatanparvarlik va oilaviy qadriyatlarni G'arb mutafakkirlari ilgari surgan erkin fikr, ijodkorlik va fuqarolik faolligi bilan birlashtirish ta'lim mazmunini boyitadi. Ilmiy manbalarda ham yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur o'rganish va ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish eng dolzarb vazifa sifatida ko'rsatiladi; bu yondashuv men ilgari surayotgan "sharqona ma'naviyat + g'arbona tizimlilik"konsepsiyasi bilan uyg'un keladi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari asarlarida alohida ta'kidlangan oilaviy tarbiya, ota-onaning mas'uliyati va o'smir shaxsining shakllanishida oilaviy munosabatlarning roli bugungi ta'lim siyosati bilan hamohang holda ko'rilishi lozim. Asosiy qism doirasida, menimcha, maktab va oliy ta'lim muassasalarida shaxs tarbiyasini rejalashtirishda Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib va boshqa allomalar ilgari surgan aqliy, jismoniy, estetik, ma'naviy va mehnat tarbiyasi birligini ta'minlash, shu bilan birga, G'arb tajribasidan tanqidiy fikrlash, loyiha va tadqiqot faoliyatini kuchaytirish kabi elementlarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha aniq metodik tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa





Mazkur tadqiqot Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari yuksak darajada ishlab chiqilganini, ular o'rtasida chuqur ichki uyg'unlik mavjudligini ko'rsatadi. Sharq allomalari – Forobiy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Navoiy va boshqalar – shaxs tarbiyasida ma'naviy barkamollik, axloqiy poklik, aqliy kamolot, mehnatsevarlik va jamoviylikni bosh maqsad sifatida ilgari suradilar. G'arb mutafakkirlari esa tarbiyani erkin fikrlaydigan, huquqiy ongli, tanqidiy tafakkurga ega va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish vositasi sifatida asoslab, shaxs erkinligi va mas'uliyat muvozanatiga e'tibor qaratadilar. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikkala an'ana ham komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi: farq ko'proq uslub va falsafiy asoslarda bo'lib, Sharq ma'naviyat va axloqqa, G'arb esa erkin fikr va fuqarolik ongiga tayangan. Mening fikrimcha, bugungi "Yangi O'zbekiston" sharoitida samarali tarbiya modeli sharqona ma'naviy qadriyatlar (vatanparvarlik, o'dob-axloq, oilaparvarlik, halollik)ni g'arboncha tizimlilik va tanqidiy fikrlash bilan uyg'unlashtirgan holda, shaxsning aqliy, jismoniy, ma'naviy va estetik jihatdan har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilishi lozim. Tadqiqot natijalari oila, maktab va mahalla hamkorligiga tayangan holda, Sharq va G'arb merosidagi tarbiyaviy g'oyalar asosida ma'rifatli, raqobatbardosh, fuqarolik pozitsiyasiga ega yoshlarni tarbiyalash bugungi ta'lim siyosatining asosiy vazifasi bo'lishi zarurligini tasdiqlaydi. Shu ma'noda, kurs ishining nazariy xulosalarini ta'lim dasturlari, tarbiyaviy ishlar rejalari va pedagogik amaliyotga tatbiq etish kelajakda komil shaxs modelini hayotga izchil joriy etish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jayev N. R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2012.
2. Qodirov A. Sh. Sharq mutafakkirlari pedagogik merosi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
3. Hasanboeva O. U. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2013. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Fan, 1993.
4. Ibn Sino Abu Ali. Tib va falsafa asarlari (tarbiya bo'limi). – Toshkent: Fan, 1980.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: G'afur G'ulom Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Jumaboyev N. P. Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy va axloqiy qarashlari. – CyberLeninka ilmiy maqolalar bazasi, 2023.
8. Saydalieva D. Z. Pedagogik faoliyat: Sharq va G'arb mutafakkirlari. – Oriens jurnali, 2024.
9. Arxiv.uz. Sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiya haqidagi pedagogik qarashlari. – Elektron resurs, 2019.

